


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI



REKREATSION BALIQCHILIK

FANINING O'QUV DASTURI

Bilim sohasi:	800000	- Qishloq, o'rmon, baliq xo'jaligi va veterinariya
Ta'lim sohasi:	830000	- Baliq xo'jaligi
Ta'lim mutaxassisligi:	60830100	- Suv bioresurslari va akvakultura

Toshkent 2025 yil

Fan/modul kodi REKBB 2504		O'quv yili 2025-2026	Semestr 5	ECTS - Kreditlar 4	
Fan/modul turi Tanlov		Ta'lim tili O'zbek/rus		Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)		Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Rekreatsion baliqchilik	48		72	120
2.	I. Fanning mazmuni <i>Fanni o'qitishdan maqsad</i> Bakalavriat yo'nalishi talabalarini aholining dam olishi va xizmat ko'rsatish faoliyati bilan ta'minlash imkoniyatini bera oladigan baliqchilik tarmog'ining o'ziga xos yo'nalishi bo'lgan rekreatsion baliqchilik to'g'risidagi bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish hisoblanadi. Mavjud suv zahiralardan samarali foydalanish qit'a ichkarisida joylashgan irrigatsiya tizimi rivojlangan, iqtisodiyoti faol rivojlanayotgan, aholi turmush darajasi ko'tarilayotgan O'zbekiston kabi mamlakatlarda davr talabi sanaladi. Aholi salomatligini tiklash (<i>rekreatsiya – lotinchadan olingan so'z bo'lib tiklanish ma'nosini anglatadi</i>) bajarishni o'rganish kerak bo'lgan tobora dolzarb vazifaga aylanib bormoqda. Shu nuqtayi nazardan qaraganda iqtisodiyotning baliqchilik tarmog'ida rekreatsion baliqchilik juda katta istiqbolga ega. Orol dengizi havzasidagi suv havzalarining baliq mahsuldorligi yiliga gektaridan 10 kg ni tashkil qiladi. Bunday suv havzalari kam bo'lib mamlakatning tekislik qismida aholi yashash joylaridan uzoqda infrastruktura kam rivojlangan hududlarda joylashgan. Shu bilan birga barcha aholi punktlari baliq mahsuldorligi yanada past bo'lgan daryo va kanallarga bog'langan. Daryolar, kanallar, kar'ernlarda, ko'lchalarda rekreatsion turizmni zamonaviy darajada rivojlantirish aholining faol dam olishini ta'minlaydi, suv havzalaridan soliq olish (boshqa suv havzalaridan shu jumladan muhim baliqchilik suv havzalariga qaraganda ko'proq) imkoniyatiga ega bo'ladi va yangi ish o'rinlari yaratiladi. Shu bilan birga rekreatsion baliqchilik respublikada turizmni kuchli rivojlantirish imkoniyatiga ega. Daryolar suv oqimi boshqariladigan va suv zahiralardan foydalanishdagi keskinlik sharoitida bunday faoliyat turini faqatgina dam oluvchilarni havaskor va sport ovchiligi obyektlari bilan ta'minlay oladigan akvakulturaning zamonaviy texnologiyalaridan foydalangan holda amalga oshirish mumkin. <i>Fanning vazifasi</i> - quyidagilardan iborat: • rekreatsion baliqchilik nuqtayi nazardan respublikamizdagi havzalar tipi turli-tumanligi bilan tanishish; • aholi salomatligini tiklash sohasida xizmat ko'rsatadigan baliqchilik tarmog'idagi korxonalar tiplari bilan tanishish; • jahon faunasidan rekreatsion baliqchilik asosiy obyektlarini yetishtirish texnologiyalari va ularning biologiyasi bo'yicha bilimlar olish; • rekreatsion baliqchilik ehtiyojlari uchun turli sistematik holatdagi baliq turlarini tanlash va ularni ko'paytirish texnologiyalarini o'zlashtirish;				

rekreatsion baliqchilik sohasida faoliyat yuritayotgan baliqchilik korxonalari tuzilishi bilan shu jumladan, biotexnologik va iqtisodiy asoslari bilan tanishish

II. ASOSIY NAZARIY QISM (MA'RUZA MASHG'ULOTLARI)

Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

1-mavzu. Rekreatsion baliqchilikning ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyati

Aholining dam olishi ijtimoiy-iqtisodiy hodisa sifatida, tarmoqdagi xizmatlar dinamikasi va tuzilishiga ta'sir qiluvchi sabablari. Aholi salomatligini tiklash hajmi va iqtisodiy ahamiyati o'rganish

2-mavzu. Orol dengizi havzasidagi rekreatsion hududlar

Havzaning tog' va tog'oldi hududlarini va havzaning tekislik qismi. Lotik suv havzalari Lentik suv havzalarini o'rganish

3-mavzu. Baliqlar biologiyasi va zoogeografiyasi

Ovlanadigan baliqlar biologiyasi, sistematikasi baliqlar zoogeografiyasini o'rganish usullari.

4-mavzu. Rekreatsion baliqchilikning asosiy baliqchilik sikllari

Baliqlarning ota-ona to'ldasini shakllantirish, sun'iy ko'paytirish, lichinka va chavoqlarini yetishtirish texnologiyasi

5-mavzu. Rekreatsion baliqchilik turlari tasnifi

Chuchuk va sho'r (dengiz) suvlari, qirg'oqdan yoki qayiqda baliq ovlash, mavsumga mos qish yoki yozda baliq ovlash, yavvoyi va yarim yavvoyi baliqlarni ovlash. Spinning, qarmoq, xoda, suzgich, xivich bilan baliq ovlash usullari.

6-mavzu. Aholining havaskor baliq ovlash ko'rinishida dam olish xususiyatlari

Baliq ovlash eng ommaviy sport turi va turli uyushmalar. Yirik baliq ovlash musobaqalari va xalqaro baliq ovlash musobaqalari

7-mavzu. Baliqchilik boshqaruvining ilmiy asoslari.

Tur operatorlar va tur firmalar xizmati, joylashtirish, ovqatlantirish, tashish, kuzatish va baliq ovlash chog'ida maslahatlar berish. Baliqchilik turizmi sohasida talabning mavsumiy o'zgarishi

8-mavzu. Baliq ovlash usullari va ularning texnologik asoslari

"Tutding-qo'yib yubording" tamoyilida baliq ovlash qo'yib yuborilgan baliqlardagi jarohatlar va ularning o'lishi

9-mavzu. To'liq tizimli rekreatsion baliq ovlash korzonasini texnologik tashkil qilish

O'zbekistondagi Sirdaryo va Amudaryo orasida joylashgan hudud. O'zbekistondagi ko'llar va katta kichik daryolarni o'rganish.

10-mavzu. Rekreatsion baliqchilik korxonasining iqtisodiy faoliyati asoslari

Turni rejalashtirish, marketing tadqiqotlari

O'zbekiston baliq zahiralari tahlili Baliq ovlash yo'llanmalari va baliq ovlash bazalari mavjudligi bo'yicha bozorni tahlil qilish Auditoriyani maqsadli so'rovdan o'tkazish (talabnoma to'ldirish).

11-mavzu. Inson omillari va ularning baliqchilikka ta'siri

Xaritada o'kaziladigan tur loyihasini ishlab chiqish, texnik hujjatlar va barcha harajatlar miqdorini hisoblab chiqish. Ekskursiya dasturining maqsadi – "tutdim –

qo'yib yubordim" tamoyili asosida ekologik-etik dam olish imkoniyati mavjudligini ko'rsatish.

12-mavzu. Rekreatsion baliqchilik korxonasini yaratish uchun loyihasini va biznes – rejasini ishlab chiqish

Pullik baliq ovlash uchun hovuzlarni to'g'ri rasmiylashtirish. Baliq ovlash sohasidagi qonunchilik hujjatlari

III. AMALIY MASHG'ULOTLARI BO'YICHA KO'RSATMA VA TAVSIYALAR

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Baliq ovlash uskunalari bilan ishlash texnikasi
2. Baliq populyatsiyasini monitoring qilish usullari
3. Ekologik ta'sirni baholash va kamaytirish strategiyalari
4. Boshqaruv rejalarini ishlab chiqish bo'yicha loyiha ishlari
5. Rekreatsion baliqchilik turlari tasnifi
6. Baliq populyatsiyasini modellashtirish va tahlil qilish
7. Baliqchilik kurortlarini tashkil qilish xususiyatlari (shakli)
8. Baliqchilik siyosatini tahlil qilish va takliflar ishlab chiqish
9. Baliqchilik boshqaruvi bo'yicha amaliy loyihalar
10. Suv muhitini tiklash bo'yicha dala ishlari
11. Baliq resurslarini baholash va monitoring qilish
12. Baliqchilik va akvakultura bo'yicha dala tadqiqotlari

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

IV. MUSTAQIL TA'LIM VA MUSTAQIL ISHLAR

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Turizmning rivojlanish tarixi
2. O'rta Osiyo va O'zbekistonning turistik hudud sifatidagi xususiyatlari
3. turizmi kontseptsiyasi. Rekreatsion baliqchilik turizmi
4. Turistik faoliyat asosiy ko'rsatkichlari
5. Turistik oqimlarning geografiyasi
6. Turistik oqimlarning harajati va daromadi
7. Jahondagi turistik hududlar
8. Baliqchilik turizmi tasnifi
9. Baliq ovlash turizm shakli sifatida
10. Baliqchilik turizmi kontseptsiyasi
11. Havaskor baliq ovlash qoidalari
12. Havaskor (havaskor, sport) baliq ovlash tushunchasi
13. Baliqchilik turizmi xususiyatlari
14. Baliqchilik turizmining maqsad va vazifalari

	<p>15. Baliq ovlash turizmini tashkil etish xususiyatlari</p> <p>16. Baliqchilik turizmida “tutdim - qo’yib yubordim” tamoyilidan foydalanish</p> <p>17. Baliqchilik turizmida “tutdim - qo’yib yubordim” tamoyilada dam olish, baliqchilik turini tashkil etish</p> <p>18. Toshkent viloyati misolida baliqchilik turi marketing bosqichlari</p> <p>19. Toshkent viloyati misolida baliqchilik ekoturini tashkil qilish bosqichlari</p> <p>20. Pullik baliq ovlash hovuzlarini tashkil qilishning biznes rejasini tuzish</p> <p>21. Xorijiy mamlakatlarda havaskor baliq ovlash</p> <p>22. Ko’llarda, suv omborlarida va daryolarda baliq ovlash</p> <p>23. O’zbekistonda baliqchilik turizmini rivojlantirish istiqbollari</p> <p>24. Baliqchilik turizmi sohasida turoperatorlik faoliyati</p> <p>25. Baliqchilik turizmini shakllantirish dasturi</p> <p>26. Baliqchilik turizmi zahiralari tahlili</p> <p>27. Toshkent viloyatidagi mashhur baliq ovlash bazalari tahlili</p> <p>28. “Tutdim – qo’yib yubordim” ekologik tamoyiliga asoslangan baliq ovlashning ahamiyati</p> <p>29. Hovuz baliqchiligi asosida baliqchilik turizmini shakllantirish</p> <p>30. Respublikamiz turli hududlarida baliq ovlashning noyoblighi</p> <p>31. Mineral moddalarning baliqlarni oziqlantirishdagi ahamiyati</p> <p>32. Tayyorlangan omuxta yemni saqlash shartlari meyoriy talablar</p> <p>33. Chuchuk suv o’tlarini yetishtirish va ulardan foydalanish</p> <p>34. Sifatsiz omuxta yemlar keltirib chiqaradigan baliq kasalliklari</p> <p>35. Sanoat tarzida va mahalliy usulda tayyorlanadigan ozuqalar</p> <p>36. Baliq turlararo ozuqa munosabatlari</p> <p>Mustaqil o’zlashtiriladigan mavzular bo’yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.</p>
3.	<p>V. Ta’lim natijalari / Kasbiy kompetensiyalari</p> <p>Talaba bilish kerak:</p> <ul style="list-style-type: none"> - mahalliy geografik sharoitda rekreatsion baliqchilik istiqbollariga ega bo’lgan baliq turlari biologik va ekologik xususiyatlari; - baliqlarni sun’iy ko’paytirish va chvoqlarini yetishtirish; - jahon rekreatsion baliqchilik tarmog’ida foydalanilayotgan korxonalar, xizmatlar va texnologiyalar shakli haqida tasavvurga ega bo’lishi; - jahondagi rekreatsion baliqchilik korxonalarini tashkil qilishning nazariy va amaliy asoslarini bilish va kelajakda respublikamizda shunga o’xshash korxonalarni rivojlantirish; - rekreatsion baliqchilik ehtiyojlari uchun baliqchilik korxonasi sharoitida baliq chavoqlarini yetishtirish texnologiyasi bo’yicha bilim va ko’nikmalarga ega bo’lishi <ul style="list-style-type: none"> - baliqlar ota-ona to’dasini sakllantirish va sun’iy ko’paytirish uchun sharoit yaratish; - baliq chavoqlarini yetishtirish; - tirik baliqlarni tashish va rekreatsion baliqchilik havzalarini baliqlantirish; -rekreatsion baliqchilik havzalari muhit sifatini saqlash va baliqlarni oziqlantirish;

	<ul style="list-style-type: none"> - turli tipdagi havzalarda rekreatsion baliqchilik xizmatlarini ko'rsatish; - rekreatsion baliqchilik korxonalarini tashkil qilish uchun kerak bo'ladigan ko'nikma, tadbirlarni rejalashtirish korxonani turg'un va daromadli faoliyat yuritish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.
4.	<p>VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishlash; • taqdimotlarni qilish; • dialogik yondashuv; • jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar • Amaliy ta'lim; • Jarayonga yo'naltirilgan ta'lim; • Munozara; • Loyihaviy ishlar; • Mustaqil o'rganish; • Yozuv portfolio kiritish • So'rov o'tkazish
5.	<p>VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.</p>
6.	<p>Asosiy adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. А. А. Глушко, А. М. Сазыкин. География туризма – Владивосток : ДВГУ, 2002. – 265 с. 2. Yuldashov M.A. Kamilov B.G. Baliqlar ekologiyasi va atrof-muhit muhofazasi T:2021 y.-244 b. <p>Qo'shimcha adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 1 maydagi "Baliqchilik tarmog'ini boshqarish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2939 sonli qarori 4. Колбовский Е.Ю. Экологический туризм и экология туризма: уч. пособие. - М.: Академия, 2006. 5. Морозов М.А. Экономика и предпринимательство в социально-культурном сервисе и туризме. - 2-е изд., испр. и доп. - М.: Academia, 2006. 6. Максаковский, В.П. Международный туризм: общие вопросы / В.П. Максаковский // География в школе 2009 – №4 – с.10-16 7. Клуб рыболовных путешествий [Электронный ресурс]. - Режим доступа: http://www.fishingtravel.ru

	<p>8. Textbook Library Fish, Fishing, and Conservation SH327.7 2023</p> <p>9. Рыболовный туризм [Электронный ресурс]. - Режим доступа: http://allfishing.ru</p> <p>Internet saytlari</p> <p>1. https://www.washington.edu/</p> <p>2. https://www.litres.ru/book/chuck-hollingworth-2/recreational-fisheries-43590803/</p> <p>3. https://ecampus.oregonstate.edu/online-degrees/graduate/fisheries-management/curriculum.htm?utm_source=chatgpt.com</p> <p>4. www.lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari milliy bazasi</p> <p>5. Все о туризме - образовательный туристический портал [Электронный ресурс]. - Режим доступа: http://tourlib.net</p> <p>6. http://ru.wikipedia.org/wiki</p> <p>7. http://holm-forum.ru/turizm/opredelenie-turizma/ponyatie-vidy-i-formy-turizma.html</p> <p>8. http://www.karelexpo.ru/events/2008-ohota-i-rybalka-2008/osobennosti-ohotniche-rybolov</p> <p>9. http://referat.yabotanik.ru/turizm/ohotnicherybolovnyj-turizm-kak-vid-turizma/153855/143623/page2.html</p>
7.	<p>Fanning o‘quv dasturi Toshkent davlat agrar universiteti Ilmiy Kengashining 2025_yil “04” 07 dagi “15” – sonli bayoni bilan maqullangan</p>
8.	<p>Fan/modul uchun ma’sullar:</p> <p>N.R.Toshova – TDAU, “Umumiy zootexniya va veterinariya” kafedrası dotsenti b.f.f.d., (PhD)</p> <p>F.J.Utemuratova TDAU, “Umumiy zootexniya va veterinariya” kafedrası assistant b.f.f.d., (PhD)</p> <p>G.T Raxmatova – TDAU, “Umumiy zootexniya va veterinariya” kafedrası assistenti</p> <p>I. Abduvasikov – TDAU, “Umumiy zootexniya va veterinariya” kafedrası assistenti</p>
9.	<p>Taqrizchilar:</p> <p>F.E. Safarova– TDAU Umumiy zootexniya va veterinariya kafedrası dotsenti</p> <p>B.G. Kamilov– Astraxan davlat texnika universitetining Toshkent viloyatidagi filiali “Suv bioresurslari va texnologiyalar” kafedrası professori b.f.d.</p>

Mazkur o'quv dasturi dunyoning yetilgan QS va THE reytinglarida nufuzli TOP-300 talikka kirgan quyidagi oliy ta'lim tashkilotlarining ta'lim dasturlari asosida ishlab chiqilgan.

№	OTM nomi	QS	THE	TOP-300 ta'lim dasturlari asosida kiritilgan qo'shimchalar	Mazkur dasturdagi mavzu nomi	Havolalar
1.	Technical University of Denmark	109	121	Baliq ovlash usullari va texnologiyasini asoslab beradi.	(Fish Capture Technology) Baliq ovlash texnologiyasi 8-mavzu. Baliq ovlash usullari va ularning texnologik asoslari	https://www.dtu.dk/english/education/graduate/msc-programmes/sustainable-fisheries-and-aquaculture/curriculum?utm_source=chatgpt.com
2.	University of Florida	215	134	Baliqchilik turizmi sohasida talabning mavsumiy o'zgarishi, baliqchilik boshqaruvi.	(Fisheries Governance) Baliqchilikni boshqarish 7-Ma'ruza. Baliqchilik boshqaruvining ilmiy asoslari.	https://ffgs.ifas.ufl.edu/media/ffgsifasufledu/docs/pdf/all-courses/ffgs-all-courses-syllabi/ffgs-all-courses-syllabi/fas-courses/FAS-6355C---Fisheries-Management-Syllabus-%28Face-to-Face-and-Online%29.pdf?utm_source=chatgpt.com
3.	The Ohio State University	208	108	Baliq resurslarini baholash va monitoring qilish usullari.	(Fishery Assessments) Baliqchilikni baholash 11-amaliy mashg'ulot. Baliq resurslarini baholash va monitoring qilish	https://senr.osu.edu/sites/senr/files/imce/files/course_materials/ENR534_2SP13syl.pdf?utm_source=chatgpt.com